

**“YURIDIK SOHADA “DATA SCIENCE” NING O’RNI: IMKONIYATLAR,
MUAMMOLAR VA KELAJAK”**

Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o’g’li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

“Ekologiya va huquq” fakulteti 3-bosqich talabasi.

G’aniyeva Samira Sayfulla qizi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

“Ekologiya va huquq” fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Yurisprudensiya sohasida data science qo’llanilishi zamonaviy texnologiyalar va huquqiy tahlilning birlashmasi sifatida katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada data science yondashuvlarining huquqiy tadqiqotlar va amaliyotda qanday qo’llanilishi, uning qulayliklari haqida muhim ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *data science, yurisprudensiya, prognoz, huquqiy tahlil, jinoyat, qaror, avtomatlashtirish.*

KIRISH

Data science ko’p tarmoqli soha bo’lib, statistik va hisoblash usullarini birlashtiradi. Bu soha katta hajmdagi ma’lumotlar to’plamlarini o’rganish, tahlil qilish va tekshirish uchun ilmiy yondashuvlardan foydalanadi [1]. Data science sog’liqni saqlash sanoati, bank sektori, ta’lim sektorini rivojlantirish va mudofaa kabi bir qancha sohalarda ko’proq qo’llaniladi [2]. Biroq, ushbu maqolada biz “data science” ning huquqiy amaliyotda o’zaro bog’liqligi va qo’llanilishini muhokama qilamiz. Bugungi kunda Data science va huquq sohalari tobora yaqinlashmoqda. Yuridik sohada ma’lumotlar tahlilidan foydalanish orqali ularning samaradorligi, aniqligi va mahsuldorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Huquqshunoslikda “data science”ni qo’llanishi, odatda, yuridik ma’lumotlarni tahlil qilish, prognoz qilish va muayyan huquqiy masalalarni yechishda yordam beradi. Yuridik sohada “data science” asosan quyidagi masalalarda ko’proq qo’llaniladi:

Yuridik tadqiqotlar: Qonun hujjatlari va sud ishlarining tahlil qilish orqali data science yordamida huquqshunoslar o’z ishlarini samarali bajarishlari mumkin.

Jinoyatlarni oldini olish: Jinoyatlarni prognoz qilish va ularning oldini olish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish.

Hujjatlarni avtomatlashtirish: Hujjatlarni avtomatik ravishda tasniflash va tahlil qilish orqali vaqtni tejash va xatoliklarni kamaytirish.

Sud jarayonlarini muvofiqlashtirish: Sud ishlarini tahlil qilish va prognoz qilish orqali, ishlarning samarali boshqarilishini ta'minlash [3,4,5].

“Data Science”ning yuridik sohadagi imkoniyatlari. Data science yuridik tadqiqotlarni yanada samarali qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Masalan, katta miqdoriga sud ishlari mavjud bo'lganda, data science texnologiyalari yordamida bu ma'lumotlar tahlil qilinadi va muhim ko'rsatkichlar aniqlanadi. Shu tariqa, yuridik tadqiqotchilar qaysi huquqiy sohalarda tez-tez qoidabuzarliklar sodir bo'lishi mumkinligini va qaysi qonunlar samarali ishlashini aniqlay olishlari mumkin. Bundan tashqari, hujjatlarni avtomatlashtirish tizimlari orqali sud qarorlari, kontraktlar va shunga kabi huquqiy hujjatlarni avtomatik tahlil qilish va o'zgartirish mumkin. Buning natijasida yuridik firma yoki tashkilotlarning ish yuki kamayadi va huquqshunoslarning xatoliklar qilish ehtimoli kamayib boradi. Misol uchun, ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar asosida yuridik hujjatlarni yaratish va tekshirish avtomatik ravishda bu jarayonlarning tezligi va sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Sud jarayonlarida esa data science yordamida qaysi turdagi ishlar qanchalik tez hal qilinayotganini, qarorlarning qanday tartibda qabul qilinayotganini va qaysi sudyalarning eng samarali ishlayotganini aniqlash mumkin [6]. Shu orqali, sud jarayonlarini yaxshilash va ko'proq adolatli qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Yuridik amaliyotdagi eng muhim masalalardan biri bo'lgan jinoyatchilikni *aniqlash, bartaraf etish* va uni *oldini olish*da data science muhim vazifani bajaradi. Xususan, bizga jinoyatlarni oldini olish va prognoz qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish juda muhimdir. Bevosita, data science yordamida, jinoyatlarning qayerda va qachon sodir bo'lishi mumkinligini prognoz qilishimiz mumkin. Shu tarzda, jinoyatchilik darajasini kamaytirish va xavfsizlik choralarini kuchaytirishimiz mumkin.

“Data Science”ning yuridik sohadagi muammo va cheklovlari. Hammamizga ma'lumki, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonida maxfiylik va xavfsizlik masalalari jiddiy ahamiyatga ega [7]. Yuridik ma'lumotlar, ayniqsa shaxsiy ma'lumotlar, maxfiy bo'lishi kerak. Data science texnologiyalari ushbu ma'lumotlarni to'g'ri va xavfsiz boshqarishni talab qiladi. Shaxsiy ma'lumotlarni boshqarishda xavfsizlik choralariga qat'iy rioya qilish zarur.

Data science tahlil jarayonida ma'lumotlar noto'g'ri bo'lishi yoki xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday xatoliklar huquqiy qarorlar qabul qilishda muhim oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, data science tahlilchilari tajribali va malakali bo'lishi zarur.

Data science yordamida ma'lumotlarni tahlil qilishda etika masalalari ham yuzaga keladi. Masalan, shaxsiy ma'lumotlarni qanday ishlatish, jinoyatlarni prognoz qilishda adolatli va insoniy yondashuvni qanday ta'minlash kabi savollar yuzaga keladi. Bu masalalarni hal qilishda ehtiyotkorlik va mas'uliyat juda muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda "Data Science"ning yuridik sohadagi roli

Kelajakda data science va ma'lumotlar tahlili texnologiyalarining yuridik sohada qo'llanilishi huquqiy ta'limni ham o'zgartirishi mumkin. Yuridik ta'limda data science asoslari va ma'lumotlar tahlili bo'yicha kurslar qo'shilishi, huquqshunoslarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularning qobiliyatlarini oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu, kelajakdagi yuridik mutaxassislarining texnologik o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, Data science texnologiyalari yordamida intellektual mulkni himoya qilishda yangi usullar ishlab chiqishimiz mumkin. Misol uchun, mualliflik huquqi, patentlar va boshqa intellektual mulk turidagi hujjatlarni monitoring qilish va himoya qilish uchun ma'lumotlar tahlili texnologiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Buning natijasida intellektual mulkni noqonuniy ishlatish yoki buzilishlar yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirishimiz mumkin.

Xulosa. Kelajakda data science texnologiyalarining yuridik sohada qo'llanilishi ko'plab imkoniyatlarni ochadi va bir vaqtning o'zida bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, hujjatlarni avtomatlashtirish, sud jarayonlarini muvofiqlashtirish va jinoyatlarni oldini olish kabi sohalarda data science yangi yondashuvlar va samaradorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yuqoridaga ta'kidlab o'tganimizdek maxfiylik, xavfsizlik va etika masalalarida bir qancha muammolarga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu masalalarga diqqat bilan e'tibor qaratish zarur. Zero, data science va yuridik sohaning integratsiyasi kelajakda yanada kuchli, samarali va adolatli huquqiy tizimlarni yaratishga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uzbekdevs.uz/maqolalar/data-science-nima>
2. Data Science & Law: The Future of Legal Practice
https://www.linkedin.com/pulse/data-science-law-future-legal-practice-muhammenizam?utm_source=share&utm_medium=member_mobile_web&utm_campaign=copy
3. <https://skillbox.uz/course/profession-data-scientist/>

4. <https://ict.xabar.uz/uz/startap/big-data-texnologiyasi-va-undagi-malumotlarni-tahlil-etish>
5. <https://lex.uz/docs/-5032128>
6. <https://my.sud.uz/>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_xavfsizligi